

BIZNES FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN QTISODIY
MATEMATIK TAHLILI.

G'aymatova Dilafruz G'ofurjonova

*University of economics and pedagogy Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası.
assistenti*

Калит сўзлар: кичик бизнес, инновациялар, ўртача квадратик четланиш, регрессия тенгламаси, корреляция коэффициенти, кичик бизнесни ривожлантириш кўрсаткичлари, корхона фаолиятини баҳолаш.

Ключевые слова: малый бизнес, инновации, среднеквадратичное отклонение, уравнение регрессии, коэффициент корреляции, показатели развития малого бизнеса, оценка деятельности предприятия.

Key words: small business, innovation, mean square deviation, regression equation, correlation coefficient, small business development indicators, enterprise performance evaluation.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mulkchilik shakllarining rivojlanishi kichik biznes sub'ektlari va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni taqazo etadi. Shunday ekan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyot tuzilmalarida eng oldingi o'rinlarni egallashi kerak. Mamlakatimizda qichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati samaradorligining iqtisodiy - matematik tahlili dolzarb masalalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4417-sonli qarori ham bu yo'nalishdagi tadbirning mantiqiy davomidir[1]. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzurida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining Tadbirkorlik faoliyatini qo'llabquvvatlash davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyaviy yordam olish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish bo'yicha elektron hujjat aylanishi sxemasi tizimi joriy etildi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 16 martdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 2507-sonli qarori[2], 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4725-sonli farmoni [3] qonuniy asos bo'ldi.

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da 29-maqсад sifatida Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini foizga yetkazish belgilangan.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlari, davlat xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish, venchur fondlari, texnoparklar, biznesinkubatorlar va boshqalarni yaratish kichik biznesning faol harakatlarini rag'batlantirishda muhim omil bo'lib

hisoblanadi. O'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tadbirkorlik infratuzilmasining jozibadorlik darajasini belgilovchi doimiy o'zgaruvchan operatsion omillar majmui har qanday holatda ham joriy davrda ham, dinamikada ham ko'rsatilgan miqdor ko'rsatkichlari orqali ifodalanishi kerak. Hudud yoki tumanda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun mavjud hisoblangan xususiyatlarning ma'lum darajada yetarli emasligi sharoitida mavjud rasmiy statistik ma'lumotlar asosida hisoblangan nisbiy qiymatlardan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Hududlarda kichik biznesni baholashning asosiy parametrlari doirasidagi hisob-kitoblar jarayonida olingan tafovutlar viloyatda foydalanilmagan resurslar mavjudligini, ma'lum bir hudud foydasiga haddan tashqari nomutanosiblikni, beqaror rivojlanish tendensiyalarini, kuchli tabaqalanishni ko'rsatishi mumkin. Ushbu ish doirasida tadqiqotni quyidagi tahliliy bosqichlarni amalga oshirish taklif etiladi: - kichik biznesni rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish; - hududlarda kichik biznes faoliyati natijalarini baholash; - hududiy iqtisodiyotning kichik sektori rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish; - hududlarda kichik biznesni rag'batlantirish imkoniyatlarini aniqlash.

Birinci bosqich. Murakkab tizimlarni tavsiflashning keng qo'llaniladigan yondashuvlaridan biri bu murakkab qiymatni ko'rib chiqilayotgan jarayonning muayyan asosiy jihatlarni aniqlaydigan alohida ko'rsatkichlar to'plamiga almashtirishdir. Shu sababli, Andijon viloyatining rasmiy to'plamlarida mavjud bo'lgan ko'rsatkichlar asosida iqtisodiyotda kichik biznesning holati, ko'lami va rivojlanish sur'atlarini tavsiflovchi bir qator ko'rsatkichlarni aniqlash va baholash zarur bo'ladi. Ular orasida quyidagilar mavjud:

Ikkinchi bosqich. Andijon viloyati statistika boshqarmasining rasmiy manbalariga asosan, "1" - "4" ko'rsatkichlarini baholash uchun 2010-2021 yillar uchun Andijon viloyati hududlarida ishlab chiqarish hajmi va kichik biznes sub'ektlari soni to'g'risida bir qator ma'lumotlar shakllantirildi.

Uchinchi bosqich. Amalga oshirilgan hisob-kitoblarning mantig'i Andijon viloyati iqtisodiyotining kichik sektorining rivojlanishini tegishli butun respublika natijalari bilan bog'lash imkonini beradigan umumlashtirilgan tahlilni talab qiladi. Bundan tashqari, olingan ko'rsatkichlarning o'lchovlari teng bo'lmagani uchun ularni normallashtirish zarur. Bunday holda, barcha ko'rsatkichlar uchun O'zbekiston Respublikasi uchun bazaviy qiymat 1 (100%) sifatida qabul qilinadi. "1" - "2", "5" - "6" ko'rsatkichlari uchun me'yorlashtirish Andijon viloyati uchun qiymatlarning Respublika qiymatlari nisbati bilan amalga oshiriladi. "3"- "4" ko'rsatkichlari uchun me'yorlashtirish teskari tartibda amalga oshiriladi, chunki o'zgaruvchanlik ko'rsatkichlarining qiymati vaziyatning yaxshilanishi bilan qaramaqarshi munosabatga ega. Tabiiyki, kichik biznes ko'rsatkichlarining hududlararo o'zgarishi qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotning ushbu sektoridagi vaziyat shunchalik xavfli va oldindan aytib bo'lmaydi.

To'rtinchi bosqich. Kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar haqida so'z borar ekan, nazariya va amaliyotda, jumladan, xorijiy korxonalarda ham ko'plab tegishli mexanizmlar shakllanganini alohida ta'kidlash mumkin. O'z navbatida, ilg'or innovatsion tizimlar tajribasi ko'rsatganidek, ilm-fan va biznes yuqori sifatli innovatsion mahsulotlarni yaratish uchun moliya tuzilmalari, ilmiy va jamoat tashkilotlari, hokimiyat, ayniqsa innovatsion iqtisodiyot shakllanishning dastlabki bosqichida qo'llab-quvvatlashga muhtoj.

АДАБИЁТЛАР:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va sanoat vazirligi huzuridagi kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4417-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 16 martdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2507-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4725-sonli farmoni.
4. Шварц Р.С., Шатохин М.В., Анциферова И.В. Оценка показателей отраслевой специализации региона. - <https://cyberleninka.ru/article/n/otsenka-pokazateleyotraslevoy-spetsializatsii-regiona>.
5. Ситникова Э.В., Олабина В.В., Пидоймо Л.П. Роль малого бизнеса в развитии экономики России // Известия Юго-Западного государственного университета. 2016. № 4 (21). С. 89-96. 6. Абдуллина С.Н., Сафиуллина К.Г., Гатауллина Л.Р. Малый и средний бизнес республики Татарстан в условиях кризиса // Казанский экономический вестник. 2016. № 4(24). С. 80-87.